

Umumta'lim maktablari 6-sinf o'quvchilarining 2025-2026 o'quv yilida tabiiy fanlarni o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun test topshiriqlari varianti

6 -__ sinf o'quvchisi _____

F.I.SH.

O'quvchi to'plagan umumiy ball:_____ (maksimal ball: 40)

**ChSB-2
VARIANT**

1) Chiziqlar o'rniga mos so'zlar berilgan qatorni belgilang.

_____ aholi orasida tez tarqalishi natijasida _____ sodir bo'ladi. (bilish - 2,5 ball)

- A. Dori vositalari, pandemiya
- B. Kasallik, epidemiya
- C. Vaksina, epidemiya
- D. Emlash, pandemiya

2) Teri organizmni kasalliklardan qanday himoya qiladi? (bilish - 2,5 ball)

- A. Terining shilliq qavati tanamizni qoplab turadi va patogenlarni yo'q qiladi
- B. Organizmga issiqlik va sovuqlik kirishining oldini oluvchi vazifani bajaradi
- C. Organizmni fizik va kimyoviy ta'sirlardan himoya qiluvchi to'siq vazifasini bajaradi
- D. Teri organizmni himoya qila olmaydi


3) Qaysi qatorda produtsent organizmlar keltirilgan? (qo'llash - 4,5 ball)

1-makkajo'xori, 2- ot, 3- chumoli, 4- qoplon, 5- bug'doy, 6-qoqio't, 7-sichqon, 8-kaktus, 9-qirqquloq, 10-quyosh

- A. 1, 5, 6, 8, 9
- B. 1, 2, 6, 9, 10
- C. 1, 5, 6, 8, 9, 10
- D. 2, 3, 4, 7

4) Rasmdagi oziq to'rida ilon qaysi organizmlar bilan oziqlanadi? (qo'llash - 4,5 ball)

- A. Qush, sichqon, hashorat qurti
- B. Qush, tulki
- C. Baqa, hashorat qurti
- D. Qush, baqa



5) Oziq zanjiridagi qaysi organizmga quyosh energiyasi eng kam yetib keladi? (qo'llash - 4,5 ball)

- A. Shilliqqurt
- B. Baliq
- C. Laylak
- D. Hammasida bir xil



6) Chiziqlar o'rniga mos so'zlar berilgan qatorni belgilang. (bilish - 2,5 ball)

Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan _____ oziq zanjiri yoki oziq to'riga tushishi va undagi _____ tirik organizmlarni _____ mumkin.

- A. zararkunandalar, ba'zi, yo'qotishi
- B. pestitsidlar, barcha, zararlashi
- C. moddalar, barcha, ko'paytirishi
- D. oziq moddalar, hamma, kamaytirishi

7) Jadvalda berilgan moddalarning erish haroratini kamayib borish ketma-ketligida tartiblang (mulohaza yuritish- 5,5 ball).

Moddalar	Erish harorati
Mis	1083 °C
Muz	0 °C
Alyuminiy	660 °C
Kumush	961 °C
Qo'rg'oshin	327 °C

- A. 1- mis, 2- temir, 3- alyuminiy, 4-kumush, 5- muz
- B. 1-mis, 2-kumush, 3-alyuminiy, 4-temir, 5-muz
- C. 1-muz, 2-qo'rg'oshin, 3-alyuminiy -, 4-kumush, 5- mis
- D. 1-mis, 2-kumush, 3-alyuminiy, 4-qo'rg'oshin, 5-muz

8) Qaysi qatorda issiqlik o'tkazgichlar keltirilgan? (qo'llash - 4,5 ball)

- A. Temir, mis, alyuminiy, oltin
- B. Paxta, kumush, rezina, alyuminiy
- C. Jun mato, paxta, alyuminiy, yog'och
- D. Kauchuk, taxta, shisha, suv

9) Qaysi qatorda bug'lanish va qaynash jarayonlari orasidagi o'xshashlik to'g'ri keltirilgan? (qo'llash- 4,5 ball)

- A. Bug'lanish jarayoni sekin kechadi, qaynash esa tezkor jarayon
- B. Bug'lanish tezkor jarayon, qaynash jarayoni esa sekin kechadi
- C. Har ikki jarayonda moddalar suyuq holatdan gazsimon holatga o'tadi
- D. Bug'lanish va qaynash jarayonlari bir xil

10) Har bir fikrga "Ha" yoki "Yo'q" deb javob bering va to'g'ri javobni tanlang. (qo'llash- 4,5 ball)

Fikr	"Ha" yoki "Yo'q"
Havo massaga ega emas	
Kauchuk- elektr izolyator	
Suv – issiqlikni yaxshi o'tkazadi	
Turli moddalar har xil erish haroratiga ega	

- A. yo'q, yo'q, yo'q, ha
- B. yo'q, ha, yo'q, ha
- C. ha, ha, yo'q, yo'q
- D. ha, yo'q, ha, yo'q